



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI:
MUAMMO VA VAZIFALAR”**

**mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari
(2022-yil 31-may)**



O‘zbek tilining milliy korpusi: muammo va vazifalar / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 31.05.2022. – 356 b.

Mazkur to‘plamdan korpus lingvistikasi sohasiga doir tadqiqot natijalari, filologik dasturiy ta‘minotlar, ularning imkoniyatlari va afzalliklari, tabiiy tilni qayta ishlashga oid masalalar, semantik tizim bazalari, til va adabiy korpuslar, lingvistik ta‘minot manbalari, mashina tarjimasida lingvistik muammolar, lingvodidaktik dasturlar va platformalar, terminologik lug‘atlarni yaratish masalalariga oid materiallar joy olgan.

Ushbu ilmiy to‘plamdan korpus lingvistikasi sohasi vakillari, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va kelajak sohalariga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

B.Mengliyev – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Sh.Shaxobitdinova – Andijon davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Sh.Hamroyeva – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasini dotsenti v.b., filologiya fanlari doktori.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI: MUAMMO VA
VAZIFALAR**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya
materiallari

2022-yil 31-may

Toshkent – 2022



TASHKILIY QO‘MITA

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Hamroyev G‘ofir Hasanovich (O‘zR Vazirlar Mahkamasining Ma’naviyat va davlat tili masalalarini rivojlantirish departamenti)

Jamoliddinova Odinaxon Rustamovna (O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi)

Eshref Adali (Turkiya, Istanbul texnika universiteti)

Muratbek Bagila Kurmanbekkizi (Qozog‘iston, K.Jubanov nomidagi Aqto‘be viloyat universiteti)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Raupova Laylo Raximovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Elov Botir Boltayevich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jo‘raqo‘ziyev Nodir Imomqo‘ziyevich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

TAHRIR HAY‘ATI

Eshref Adali

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich

Raupova Laylo Raximovna

Elov Botir Boltayevich

Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna



ANONIM SHAXSIY YOZISHMALAR EKSPERTIZASI

To‘rayeva Dildora Anvarovna*

Burxonov Javodbek Azimjonovich**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan anonim yozishmalar, ularning lingvistik tahlili haqida so‘z boradi. Shevaga oid birliklarning korpusini yaratish va buning muallifshunoslik va lingvistik ekspertizadagi roli haqida fikr yuritiladi.

Annotation. This article will talk about anonymous correspondence, their linguistic analysis, which is widely spread in social networks. There is an opinion on the creation of a Corps of Polish units and their role in the study of authorship and linguistic expertise.

Kalit so‘zlar: muallifshunoslik ekspertizasi, lingvistik ekspertiza, anonim yozishma, ijtimoiy tarmoq, daliliy korpus, hududiy korpus.

Keywords: authorship expert, linguistic expert, anonymous correspondence, social network, proof body, territorial body.

Kirish

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida “so‘z erkinligi” avj olmoqda. Bundan notog‘ri maqsadda foydalanayotgan, jamiyat tinchligi va farovonligini ko‘rolmaydigan ayrim “yozuvchilar” turli mazmundagi xabarlarni ijtimoiy tarmoqlarda tarqatmoqdalar. Ayniqsa, jamiyatni qo‘zg‘atishga, ularni “uyg‘onishga” da‘vat etuvchi anonim axborotlar ko‘paymoqda. Birgina Facebook tarmog‘ida hisob-kitoblarga qaraganda kuniga 1,71 milliarddan ortiq odam tashrif buyuradi. Demak, ijtimoiy tarmoqlar xalqning diqqat e‘tiborida, undan foydalanish esa turlicha xarakterda amalga oshirilyapti.

Jamiyatda mavjud muammolardan biri davlatning siyosiy tizimiga qarshi bo‘lganlar turli axborotlarni tarqatadilar. Ayniqsa, yolg‘on xabarlar orqali ommaning xabarlarga bo‘lgan qiziqishlari yanada avj oladi. Masalan, yaqinda metropoliten bilan bog‘liq muammolar ko‘plab kuzatildi va natijada xalqning metroga bo‘lgan ishonchsizligi oshdi, bundan foydalangan “yozuvchi”lar yana bir qancha ishonchsiz ma‘lumotlarni ham tarqatishdi. Eng yomoni, xabar tarqatayotgan odamlarga uning ishonchliligi emas, aksincha, shov-shuvlilik muhim sanaladi. Ularning hech biri ijtimoiy tarmog‘ida e‘lon qilayotgan xabarining saviyasini tekshirib ham ko‘rmaydi, ular uchun joylashtirgan yangiligi

*A.Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU “Lingvodidaktika” kafedrasida o‘qituvchisi;

**Tadqiqotchi



qanchalik “prosmotr”, “like” va “podilitsiya” qilinishi va muhokamalarga sababchi bo‘lishi muhimroq va afzalroqdir. Eng achinarlisi, xalq dushmanlariga va davlatga qarshi chiqadigan shaxslarga internet asosiy qurol bo‘ldi. Ular bemalol ishonchsiz axborotlarni anonim tarzda tarqatib aholi orasida noroziliklarni kuchaytirmoqdalar. Bularga ko‘plab “jurnalist”larni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Demak, anonim tarzda yozilgan matnlarning muallifini topish uchun nima qilish kerak? E’tibor qilinishi kerak bo‘lgan narsalar juda ko‘p, ammo yaxshi natijaga erishishda birgina harf yoki so‘z ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu esa tilshunoslikning jamiyatga qanchalar muhim va ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi.

Muallifi noma’lum bo‘lgan adabiy va ilmiy asarlar (bunga qo‘lda yozilgan matnlar bilan birga nashr etish natijasida bajarilgan hujjatlar ham kiradi) ning muallifini aniqlashga zarurat tug‘iladi. Ba’zida jinoyatchi o‘z maqsadini amalga oshirish uchun jabrlanuvchiga zo‘rluk yoki tahdid ishlatib, ma’lum mazmundagi xatni yozishga uni majburlaydi, matnning mazmunini aytib zo‘ravonlik asosida yozdirib turadi. Bunday vaziyatda xatni bajaruvchi shaxsning qo‘lyozmasidagi umumiy va xususiy belgilar uning dastxatini aks ettirsa-da, matnning mazmuni undagi og‘zaki nutq belgilarini aks etishi hujjatning muallifi boshqa ekanidan xabar beradi.

Xatdagi og‘zaki nutq belgilari muallifning umumiy saviyasini belgilaydi. Bularga nutqning xususiyati, so‘z boyligi darajasi, so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlatilishi, jumla tuzilishi, so‘zlashuvda saqlangan sheva hamda xorijiy so‘z va iboralarni qo‘llash, grammatik, orfografik, leksik birliklarni qo‘llay olishi kabi boshqa xususiyatlar kiradi.[Литвинова,] Matnning mazmunini tekshirish masalasiga kriminalistik xatshunoslik sohasidagi mutaxassislar bilan bir qatorda tilshunoslar, filologlar va tekshiriluvchi matnning mazmuniga oid tegishli mutaxassislar jalb etiladi va muammo ularning hamkorligida hal etiladi.

Muallifshunoslik ekspertiza tekshiruvining asosini inson so‘zlashuv nutqining shakllanishi, ma’lum bilimlar tizimi asosida rivojlanishi, mukammallashishi va insonning individual nutq xususiyatlarining xatda aks etish qonuniyatlari tashkil qiladi. Kriminalistika muallifshunoslik matnni identifikatsiya nazariyasini, lingvistika, psixologiya, sotsial lingvistika, psixolingvistika bilimlarining ayrim nazariy holatlari bilan bog‘liq ravishda tahlil etib, muallifni aniqlash vazifasini bajaradi.

Ma’lumki, nutqda noadabiy leksik unsurlarning uchrashi o‘zbek milliy tili uchun xos. O‘zbek milliy tili va o‘zbek adabiy tili turli tushunchalardir. O‘zbek milliy tili kengroq, ya’ni u nutq faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Ammo o‘zbek adabiy tili o‘zining uslubi, dialekti, kasbiy jargoni kabilarni o‘z ichiga oladi. Milliy til turli xil ijtimoiy guruhlarning argo to‘plamidir va uning qat’iy me’yorlashgan varianti davlat tuzumining adabiy tili sifatida qaraladi.[Елистратов, 1995:231] O‘zbek adabiy tili milliy tilning me’yorlashgan va



kodifikatsiyalashgan shaklidir. To‘g‘ri ma’noda, adabiy til uchun milliy til nutq birliklarining ombori vazifasini bajaradi. Adabiy tilning me’yorlashishi, odatda, ma’lum bir davrda va ma’lum bir jamiyatda qabul qilingan eng barqaror, an’anaviy tarzda muqaddaslashtirilgan til vositalari va ulardan foydalanish qoidalari majmui sifatida tushuniladi.[https://uz.wikipedia.org/wiki/Adabiy_til.] Milliy til adabiy til me’yorlarini belgilash uchun asosdir. Shu tarzda til me’yorlarini belgilash, uni nutq vaziyatiga ko‘ra baholash, ilmiy adabiyotlarga kiritish va ommaviy axborot vositalarida aks ettirish kodifikatsiya jarayoni deyiladi. O‘zbek adabiy tilining kodifikatsiya manbalari lug‘atlar, umumiy grammatika va darsliklardir. Har bir ziyoli kishining vazifasi til nuqsonini aniqlash, uni to‘g‘ri baholash va takomilga yetkazib rivojlantirish, nutqda parazit so‘zlar kirib kelishining oldini olish orqali ularning lisoniy immunitetini mustahkamlashdan iborat. Zotan, til madaniyatini yuqori darajada saqlash, adabiy tildan foydalanishda me’yorlarga rioya qilish davlat tili siyosatining eng muhim vazifasidir.

Har bir yozuvchi, shaxsning o‘z uslubi bo‘ladi. Ilmiy tilda buni “imidj” deya ta’riflashimiz ham mumkin. Uslub hamma narsada ko‘zga ko‘rinadi, yozishda ham, o‘qishda, ishlashda va hatto so‘zlashda ham. Insonning bilim darajasi, qiziqishi va xohishiga qarab uslub shakllanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda aks etayotgan elektron, audio va video shakldagi yozishmalarda shevaga oid birliklar qo‘llanilish darajasi yuqori. Ya’ni eng mashhur jurnalistlar, bloggerlar ham og‘zaki va yozma nutqida element tarzida bo‘lsa ham shevaga oid birliklardan foydalanmoqda. Buning o‘ziga xos tomoni shundaki, milliy til vakiliga yaqin bo‘lgan umumxalq tilida gapirish ularga psixologik va qalban yaqinlashishni yuzaga keltiradi. Bu esa ma’lum bir ijobiy va salbiy maqsadlarga erishish uchun zamin hozirlaydi.

Internet tarmoqlarida bloggerlar tomonidan trendga aylangan so‘zlardan biri bu “ommo lekin”. Shevaga ko‘ra ushbu so‘z vodiylilarga tegishli bo‘lishiga qaramasdan butun viloyatlar bo‘ylab keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Sababi hozirda “omma lekin”dan kesatish ma’nosida foydalanilmoqda. Bundan tashqari, qipchoq lahjasidagi so‘zlarda yozma axborot tarqatish ham ommalashmoqda. Ya’ni “y” harfi o‘rniga “j” harfidan foydalanib hazilomuz tanqidiy ruhdagi xabarlar auditoriyaga taqdim etilmoqda.

Shevaga oid birliklarning tahlili so‘zlovchining yoshi, intellekti, savodxonligi, jinsi, ijtimoiy qatlami va hududiy mansubligini aniqlashda yordam beradi. Bu borada Y.V.Fomenko, L.P.Demidenko, L.I.Skvotsov, S.N.Zeitlin, F.P.Sergeyev, V.A.Grigorev kabi olimlar qator usullarni taklif sifatida berishadi.[Fomenko, 1987:50-56; Sergeyev, 1988:123; Seylin, 1981:51-54; Demidenko, 1986:336] Tahlillarning har biri umumiy va xususiy omillar asosida amalga oshadi. Masalan, shevaga oid birliklar (so‘z, grammatik shakl, fonetik birliklar) shakllarning xususiyat katalogi asosidagi lingvistik tahlil 2 usulda amalga



oshishi mumkin: gumonlanuvchining shaxsiy yozishmalari asosidagi shevaga oid birliklarning xususiyat katalogini tashkil etish; hududiy xoslangan noadabiy leksik, grammatik, fonetik unsurlarning xususiyat katalogini tashkil etish. Shu ikki usul asosidagi xususiyat kataloglari kodlashtirilib, prototipi hosil qilinib, dalil korpusini yaratish mumkin. Gumonlanuvchining yozishmalari asosida xususiy dalil korpusi yaratiladi va u hududiy dalil korpusi bilan qiyosan tahlil qilinadi. Umumiylik va xususiylik asosidagi tahlil elektron tarzda amalga oshiriladi. Buning uchun, albatta, shevaga oid birliklarning elektron bazasini yaratish boshlang'ich vazaifalardandir. Bu keng doirada amalga oshirilishi kerak, ya'ni O'zbekiston Respublikasidagi har bir viloyat va mahallalarning shevaga oid so'zlaridan tashkil topgan elektron dasturni yaratish lozim. Birgina shu dastur orqali tilshunos-ekspert yozishma bajaruvchisining yoshi, jinsi, ijtimoiy qatlami, savodxonligi va hududiy mansubligini aniqlab olishi mumkin. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarning lingvistik tahlilida noadabiy leksik, grammatik, fonetik unsurlarning indeksi asosida elektron dasturni tashkil etish muallifshunoslik ekspertizasining va lingvistik ekspertizaning aniq va shaffof o'tkazilishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

11. Елистратов В.С. Арго и культура [Текст]. – М., 1995. – С. 231.
 1. Демиденко Л.П. Речевые ошибки. – Минск, 1986. – С. 336.;
 2. Фоменко Ю.В. О типологии речевых ошибок // Рус. яз. в школе. № 2 – Новосибирск, 1987. – С. 50-56.
 3. Фоменко Ю.В. Типы речевых ошибок // Учебное пособие. – Новосибирск, 1994.
 4. Литвинова Т.А. Судебная автороведческая экспертиза текста с целью установления пола его автора: проблемы и перспективы УДК 343.982.323 Страницы в журнале: 111-115
12. Mengliyev B.R., To'rayeva D.A. Methods of linguistic examination by anonymous letters in the uzbek language // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. <http://berlinstudies.de/index.php/berlinstudies/article/view/29/29> Volume 1, Issue 1.2, – Berlin, 2021. Pages: 101-105.
5. Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение. // Пособие для учителей. – Москва, 1982. – С 143.
6. Сергеев Ф.П. Речевые ошибки и их предупреждение. // Пособие для учителя. – Киев, 1988. – С 123.
7. Скворецкая Е.В. Культура речи: (Упражнения и рекомендации). – Новосибирск, 1991. – С 88.



MUNDARIJA

TABRIK SO‘ZI

SIROJIDDINOV Shuhrat Samariddinovich – KOMPYUTER LINGVISTIKASI RIVOJI – MILLIY YUKSALISH MEZONI	4
KARIMOV Suyun Amirovich – O‘ZBEK KORPUS LINGVISTIKASINING BUGUNG TENDENSIYALARI	6

YALPI YIG‘ILISH MA‘RUZALARI

Eshref ADALI - MAKINE ÇEVİRMESİ İÇİN PARALLEL CORPUS	8
Мўратбек Бағила Қўрманбекқызы, Әмірғали Жанар Орынбасарқызы - ҚАЗІРГІ ТҮРІК ТІЛІ МЕН ҚАЗАҚ ТІЛІНЕ ОРТАҚ СӨЗДЕРДІҢ ЛЕКСИКА-СЕМАНТИКАЛЫҚ ЖҮЙЕСІ	27
РАУПОВА Лайло Раҳимовна - “ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ТАЪЛИМИЙ КОРПУСИНИ ЯРАТИШ” ЗАРУРАТИ ВА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ВАЗИФАЛАР	35
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich - ЎЗБЕК ТИЛИНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИНИНГ КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ДОЛЗАРБ МАСАЛАСИДИР	40
Elov Botir Boltayevich - TABIIY TILNI QAYTA ISHLASH (NLP)DA SPACY MODULIDAN FOYDALANISH	47
ШАХОБИТДИНОВА Шоҳида Ҳашимовна, ХАМРОЕВА Шаҳло Мирджоновна - ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ МОРФОЛОГИК АНАЛИЗАТОРИ КОРПУС ВОСИТАСИ СИФАТИДА	67
1-sho‘ba. O‘ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI: NATIJALAR, MUAMMOLAR, VAZIFALAR.	72



МЕНГЛИЕВ Бахтиёр Ражабович, ХАМРОЕВА Шахло Миржоновна, ГУЛЯМОВА Шахноза Кахрамоновна - ПОЛИФУНКЦИОНАЛ СЎЗЛАР ВА УЛАРНИНГ СЕМАНТИК АНАЛИЗАТОРИ ХУСУСИДА	
МЕНГЛИЕВА Мунира Бахтиёр қизи - ТУРЛИ ҚУРИЛИШЛИ ТИЛЛАРДА АСПЕКТУАЛЛИК ФУНКЦИОНАЛ-СЕМАНТИК МАЙДОНЛАРИНИНГ ТАРКИБИ	90
МЕНГЛИЕВА Мунира Бахтиёр қизи - ТУРЛИ ҚУРИЛИШЛИ ТИЛЛАРДА АСПЕКТУАЛЛИК ФУНКЦИОНАЛ-СЕМАНТИК МАЙДОНЛАРИНИНГ МАЪНО КЎЛАМИ	93
ИСЛОМОВ Икром Хушбоқович - ЛЕКСИКОГРАФИК МАҲСУЛОТЛАР ВА УЛАРДАН ТИЛ КОРПУСИДА МАЪЛУМОТЛАР БАЗАСИ СИФАТИДА ФОЙДАЛАНИШ	97

2-sho'ba. O'ZBEK TILINING MILLIY KORPUSINI YARATISH MASALALARI

НИГМАТОВА Лолахон Хамидовна - ПАРАЛЛЕЛЬНЫЕ КОРПУСЫ, КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ МЕТОД ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА	104
SALIMGEREY Zamira - COMPUTATIONAL LINGUISTICS AND ITS APPLICATIONS	110
BERDIYEVA Habiba Abdumannon qizi - O'ZBEK TILI BIRLIKLARI STEMMIZATSIYASINING AYRIM MUAMMOLARI	115
NIZOMOVA Zuhra Komil qizi - THE IMPORTANCE OF THE THESAURUS OF CHEMICAL TERMS	119
O'ROZOV Jumanazar Norqizilovich - LINGVOKRIMINALISTIKA FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI	125



ABDULLAYEVA Oqila Xolmo‘minovna - TIL KORPUSLARIDA LINGVISTIK ANNOTATSIYA VA UNING PRINSIPLARI	131
---	------------

3-sho‘ba. TABIIY TILGA AVTOMATIK ISHLOV BERISH MUAMMOLARI

ABDURAHMANOVA Muqaddas Tursunaliyevna, OLIMOVA Muxlisa Parmonovna - TEZAURUSDAGI O‘ZARO BOG‘LANISHLAR	138
ALIMOVA E'zoza, KHAMDAMOVA Shaxina - CREATION OF A NATIONAL SYSTEM FOR ASSESSING THE QUALITY OF EDUCATION IN SECONDARY SCHOOLS	143
AXMEDOVA Dildora Baxodirovna, ESHQULOVA G. - TIL BIRLIKLARINI SEMANTIK TEGGLASHDA SEMEMA MASALASI	148
АЛЛАМБЕРГЕНОВА Муқаддас Руслановна - ЎРХУН-ЭНАСОЙ ОБИДАЛАРИНИ МОБИЛ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ	154
BADRIDDINOVA Umida Yaxyoyevna - ONA TILI TA'LIMIDA O'QIB TUSHUNISHGA OID LINGVODIDAKTIK VOSITALAR XUSUSIDA	160
BESHIMOVA Mohichehra - YURIDIK HUJJATLARDAGI AYRIM TERMINLAR USLUBIYATI .	166
HASANOVA Gulbahor G'ayratovna - “SAB'AI SAYYOR” DOSTONINI O'QITISHDA O'QUV LUG'ATLARIDAN FOYDALANISH	170
KAHAROVA Iroda Sidikovna, MINOSIDINOV Sherzodbek Nahromjonovich - O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MODAL SO‘ZLAR	176
JABBOROVA Sevara Baxtiyor qizi - BADIY ASARLARNI	182



O‘RGANISHDA LUG‘ATLARDAN FOYDALANISHNING LINGVISTIK ASOSLARI	
JO‘RAYEV Nabi Narziyevich - BADIY MATNLARNI LINGVOMADANIY TAHLIL QILISHDA MILLIY TIL KORPUSINING AHAMIYATI	186
MIRVALIYEVA Dildora Anvarovna - KORPUS VA UNING TA‘LIMIY KORPUSNING AHAMIYATI	191
MUSULMANOVA Nargiza - O‘ZBEK TILINI O‘RGANISHDA TA‘LIMIY KORPUS TARKIBIDA AYRIM O‘QUV LUG‘ATLARINING O‘RNI	198
SHUKUROV Otabek Ulashevich - LEKSIKANING DINAMIK JARAYONLARIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING O‘RNI	201
QARSHIYEV Abduvali Berkinovich, KARIMOV Suyun Amirovich, Tursunov Muhammadsoli Sa’din o‘g‘li - UZBEKCORPORA.UZ: MATNLARNI RAZMETKALASH DASTURLARI	206
ZARIPOV Rafiqjon Ergashboy o‘g‘li - O‘ZBEK TILI KORPUSINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY ME‘YORLARI	213
RAJABOV Elshod Erkinovich, QIYOMOVA Nigora Bahodir qizi - O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “OILA” ASSOTSIATIV-SEMANTIK MAYDONINING TUZILISHI	218
SHAMSUDINOVA Iqbol Baxovadinovna - O‘ZBEK MILLIY KORPUSIDA KO‘MAKCHI VA KELISHIKLARNING LEKSIK-GRAMMATIK VALENTLIK ASPEKTI	224
XOLMUXAMEDOV Baxtiyor - KORPUSGA KIRITILGAN KAVSAR SURASI TADQIQI	229



4-sho‘ba. O‘ZBEK TILINING FORMAL GRAMMATIKASINI YARATISH MUAMMOLARI

TOG‘AYEVA Dilnoza - MORFEMALARNING FONETIK XUSUSIYATLARI (KELISHIK QO‘SHIMCHALARI MISOLIDA)	235
TO‘RAYEVA Dildora Anvarovna, BURXONOV Javodbek Azimjonovich - ANONIM SHAXSIY YOZISHMALAR EKSPERTIZASI	243
XOLMURATOVA Gulnoza Komiljon qizi - KORPUS ASOSIDA BAJARILADIGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIZIMI	250
XONNAZAROV Elyor G‘ofurovich - ZAMONLAR ANNOTATSIYASIDA GRAMMATIK SHAKLLARNING AHAMIYATI	256
XURRAMOVA Zarnigor Jo‘raqulovna - LEKSIKOGRAFIK MANBALARDA QISQARTMALARNING AMALIY AHAMIYATI	265
YAKUBOVA Dilafruz Tog‘oymurod qizi, QULTO‘RAYEVA Sarvinoz Bahodir qizi, UMURQULOV Bekpo‘lat Normurodovich - LINGVISTIK KORPUSDA MA‘LUMOTLARNI RASMIYLASHTIRISH	268
АВЕЗОВ Сухроб Собирович - О КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ, ТРУДНОСТЯХ ПЕРЕВОДА И ПРИНЦИПАХ ОРГАНИЗАЦИИ ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ КОРПУСОВ ТЕКСТОВ	275
НОРҚЎЗИЕВ Жамшид - ЎЗБЕК ТИЛИ ХРОНОНИМЛАР ЛУҒАТИНИ МИЛЛИЙ ТИЛ КОРПУСИГА МОСЛАШНИНГ ЛЕКСИКОГРАФИК ХУСУСИЯТЛАРИ	281
ЖЎРАЕВА Нилуфар Шухрат қизи, ШАРОПОВА Сафия Бегмат қизи - ПАРАЛЛЕЛ КОРПУС ТУЗИШ МУАММОЛАРИ	286